

PREZIDENT VA IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDA O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**Dilnavoz Xo'jamurodova**

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Pedagogika yo'nalishi 3 bosqich talabasi.

ANNOTATSIYA: Mazkur ishda Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarda o'quv jarayonini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Ushbu ta'lim muassasalari yuqori malakali pedagoglar, zamonaviy metodikalar, innovatsion texnologiyalar hamda chuqurlashtirilgan fan o'qitilishi orqali boshqa umumta'lim maktablaridan farqlanadi.

KALIT SO'ZLAR: Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar, o'quv jarayoni, innovatsion ta'lim, zamonaviy metodika, iqtidorli o'quvchilar, baholash tizimi, xalqaro tajriba, ta'lim sifatini oshirish.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini isloh qilish va zamonaviy talablarga muvofiqlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablar ushbu islohotlarning lokomotivi sifatida xizmat qiladi. Ushbu maktablar iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlash hamda global raqobatbardoshlikka tayyorlash maqsadida tashkil etilgan.

Prezident maktablari internat-maktab bo'lib, bu yerda bepul umumiy o'rta ta'lim beriladi. Prezident maktablari Agentlik tomonidan tasdiqlangan akademik o'quv kalendari hamda qat'iy belgilangan kun tartibi asosida tashkil etiladi. O'quvchilarning an'anaviy kuni tongi soat 6:30 dan boshlanadi. Dars mashg'ulotlari 8:30 dan boshlanib, asosiy akademik jarayonlar soat 15:30 ga qadar davom etadi.

Darsdan tashqari paytlarida o'quvchilar qiziqishlariga ko'ra turli o'quv to'garaklari (fan olimpiadalariga tayyorgarlik, IELTS, SAT, Zakovat, Robototexnika, Koreys tili va fan to'garaklari) ma'naviy-ma'rifiy jihatdan rivojlantiruvchi mashg'ulotlar (musiqa, raqs, teatr va radio, kulolchilik), sport to'garaklari (suzish, basketbol, volleybol, futbol, shaxmat, stol tennisi) va Milliy Gvardiya bilan hamkorlikdagi ot sporti va kamondan otish kabi mashg'ulotlariga jalb etiladilar.

Shu bilan birga, o'quvchilar Ted Talks, MUN (Model United Nations), Digital Generation (Raqamli avlod), Go Green – loyihasi, mustaqil izlanish olib borish kabi loyihalarda doimiy qatnashib keladilar.

Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarda o'quv jarayoni bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu xususiyatlar ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarni global raqobatbardoshlikka tayyorlash va milliy qadriyatlarni singdirishga qaratilgan. Prezident maktablarida ta'lim jarayoni umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari hisobga olingan holda, umumiy o'rta ta'lim sohasida xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlab chiqiladigan hamda vazirlik tomonidan tasdiqlanadigan o'quv rejalari va dasturlariga muvofiq amalga oshiriladi. Maktablarning o'quv dasturlari "Maktab – Universitet – Markaz" yaxlit uzluksiz ta'lim tizimi doirasida ishlab chiqilgan bo'lib, bu tizim o'quv jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi.

Prezident maktablari umumta'lim maktablaridan farqli ravishda ixcham tuzilishga ega bo'lib, har bir sinfda 24 nafardan oshmaydigan o'quvchilar soni ta'minlanadi. Bu individual yondashuv va yuqori sifatli ta'limni kafolatlaydi. Ixtisoslashtirilgan maktablar esa aniq fanlar (matematika, informatika, fizika) va tabiiy fanlar (kimyo, biologiya) yo'nalishlariga ixtisoslashgan bo'lib, 5–11-sinflar (aniq fanlar) va 7–11-sinflar (tabiiy fanlar) uchun mo'ljallangan.

Prezident maktablarining 11-sinf bitiruvchilari tanlangan fanlar asosida xalqaro malaka imtihonlarini (International Baccalaureate, Advanced Placement yoki International Advanced

Levels) topshirish huquqiga ega bo'ladilar va ulardan muvaffaqiyatli o'tgan taqdirda, etakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalariga kirish imkoniyatini taqdim etuvchi xalqaro diplom oladilar.

O'quvchining bir yoki bir nechta fanlardan reyting natijasi pasaygan taqdirda, u bilan individual ish olib boriladi. Prezident maktablari aniq va tabiiy fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashgan. Masalan, matematika, fizika, kimyo, biologiya va informatika fanlari xalqaro tan olingan dasturlar, jumladan, International Baccalaureate (IB), Advanced Placement (AP) va International Advanced Levels asosida o'qitiladi. Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabda o'quv jarayoni STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) modeli bo'yicha tashkil etiladi, bu esa o'quvchilarni muhandislik asoslariga o'rgatishga yo'naltirilgan.

Ixtisoslashtirilgan maktablarda O'zbekiston tarixi fani ham chuqurlashtirilgan holda o'qitiladi, bu o'quvchilarda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt, robototexnika, nanotexnologiya, biotexnologiya kabi zamonaviy yo'nalishlar bo'yicha qo'shimcha kurslar tashkil etiladi.

2024-2025-o'quv yilidan boshlab, Agentlik tizimidagi maktablarda chet tilini bilish bo'yicha kamida B2 darajadagi sertifikatga ega o'qituvchilar tomonidan fanlarni chet tilida (asosan ingliz tilida) o'qitish amaliyoti joriy etildi. Bu amaliyot matematika, fizika, kimyo, biologiya, tabiiy fanlar, informatika va axborot texnologiyalari kabi fanlarga taalluqli bo'lib, o'qituvchilarga tarif stavkasiga nisbatan 100 foiz miqdorida qo'shimcha ustama to'lanadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning xorijiy tillarni mukammal o'zlashtirishiga va xalqaro ta'lim muassasalariga kirish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

2024-yil 1-aprel kuni "Ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-55-son prezident farmoni qabul qilindi. Farmonga ko'ra, 2024-2025-o'quv yilidan Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktablarda o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yangi tizimini joriy qilish maqsadida darsdan tashqari mashg'ulotlar sifatida quyidagi mashg'ulotlar tashkil etildi:

- 5–8-sinflarda Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk sarkardalarimizning ibratli hayotini bugungi harbiylarimiz jasorati bilan bog'lab, Vatan himoyachisi ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan;
- 9–11-sinflarda harbiy o'yinlar va sport musobaqalari o'tkaziladi, o'quvchilarning harbiylar bilan bevosita uchrashuvlarini tashkil etiladi. Bu orqali o'quvchilarda harbiy-vatanparvarlik tuyg'ulari oshadi va harbiy xizmatga tayyorgarlik bosqichini o'tashga yo'naltiriladi. Har yili o'quvchilar o'rtasida "Turon yo'lbarslari" harbiy sport ("Temur tuzuklari" bilimdoni, kamondan o'q otish, qurolni to'liq bo'lmagan qismlarga ajratish va yig'ish, sport qurolidan o'q otish, birinchi tibbiy yordamni ko'rsatish) musobaqalari o'tkaziladi.

Milliy an'ana va qadriyatlarni aks ettiradigan namunaviy maktab burchaklari tashkil etildi.

O'quvchilarda axloqiy, ijtimoiy-hissiy va estetik didni rivojlantirish, tarixiy siymolar hayotini badiiy talqinda aks ettirish, milliy qadriyatlarni ulug'lashga yo'naltirilgan "Turon" teatr studiyasi faoliyati tajriba-sinov tariqasida yo'lga qo'yildi.

Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarda zamonaviy pedagogik yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, ta'lim jarayonini o'quvchi shaxsiga yo'naltirishga qaratilgan.

O'quv jarayonlarida "skramble" (mashq) va "aktivitiy" (o'yinli mashg'ulot) usullariga asoslangan metodikalar qo'llaniladi. Masalan, "smart board" (aqlli doska) yordamida qisqa vaqt ichida ijobiy natijalarga erishiladi. Raqamli vositalar va interfaol usullar o'quvchilarning muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Sun'iy intellekt va raqamli platformalar o'quv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Masalan, muhandislik psixologiyasi fanini o'qitishda sun'iy intellekt qo'llanilishi talabalarning mavzularni tezroq tushunishiga xizmat qilmoqda.

Prezident maktablariga 4-sinfni tamomlagan o'quvchilar qabul qilinadi¹. Prezident maktablariga hujjatlarni topshirish uchun talabgorlar STEAM fanlardan o'tgan o'quv yilini matematika va tabiatshunoslik fanlaridan a'lo bahoga tugatgan bo'lishlari shart. Bundan tashqari, talabgor o'quvchilar o'qiyotgan maktab Prezident maktabi joylashgan hududga mansub bo'lishi lozim².

Har bir alohida Prezident maktabining yillik qabul kvotasi 5-sinf uchun 24 nafar o'quvchidan iborat bo'lib, ular keyinchalik ikkita sinfga bir xil — 12 nafardan o'quvchi taqsimlanadi. Unga qadar o'quvchilar quyidagi 3 ta bosqichdan o'tishadi:

Hujjatlarni qabul qilish bosqichi

Qabul komissiyasiga o'quvchining quyidagi hujjatlari elektron tarzda „Prezident ta'lim muassasalari agentligi“ sayti orqali onlayn topshiriladi: tug'ilganlik haqida guvohnoma (kinder pasport) nusxasi, tasdiqlangan shakldagi ma'lumotnoma nusxasi, 3x4 o'lchamdagi rasm, baholar tabelining nusxasi, o'quvchining ota-onasi yoki ularni o'rnini bosuvchi shaxslarning fuqarolik pasporti ma'lumotlari³. Agarda hujjatlarni topshirishda kamchiliklar kuzatilsa, ularni 48 soat ichida tuzatib, qayta jo'natish talab etiladi.

Prezident maktablariga kirish imtihonlarini o'tkazish muddati va joylari qabul komissiyasi tomonidan belgilanadi. Kirish imtihonlari videokuzatuv va boshqa texnik vositalar qo'llangan holda maxsus ajratilgan joylarda o'tkaziladi. Kirish imtihonlari takroran o'tkazilmaydi. Kirish imtihonlarini o'tkazish paytida talabgorlar, kuzatuvchilar, bino rahbarlari hamda ishchi guruhining mas'ul shaxslariga aloqa vositalarini olib kirish va foydalanish, talabgorlarga kirish imtihonlariga ma'lumotnoma materiallari va elektron hisoblash texnikasini olib kirish va foydalanish taqiqlanadi. Ushbu Nizomning talablari buzilganda ishchi guruhning mas'ul shaxslari o'quvchini majburiy tartibda chetlatish dalolatnomasini tuzgan holda kirish imtihonlaridan chetlashish huquqiga egadirlar⁴.

Prezident maktablariga kirish imtihonlari ikki bosqichda o'tkaziladi. 1-bosqich saralash imtihoni hisoblanib, matematika fanidan 30 ta test topshirig'idan iborat. 2-bosqich tanqidiy fikrlash (16 ta masala), muammoni yechish bo'yicha (24 ta masala) va ingliz tilidan test savollaridan iborat⁵.

Kirish imtihonlariga taalluqli barcha materiallar (so'rovnomalar, testlar, javoblar va boshqalar) maxfiy xarakterga ega hisoblanadi hamda ularning maxfiyligi ta'lim sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi ixtisoslashgan xorijiy tashkilot, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi va Davlat test markazi tomonidan ta'minlanadi. O'tgan yillarga tegishli bo'lgan ba'zi bir test namunalari „Prezident ta'lim muassasalari agentligi“ saytiga yuklab borilishi mumkin.

Kirish imtihonlari natijalarini tekshirish va talabgorlarning javoblari natijalarini baholash ta'lim sohasida faoliyat yurituvchi xorijiy tashkilot „Cambridge Assessment“ tomonidan amalga oshiriladi.

Kirish imtihonlari (1—2 bosqich) natijalari qayta ko'rib chiqilmaydi. Kirish imtihonlari natijalari bo'yicha imtihon materiallari talabgorlarga taqdim etilmaydi.

Talabgor o'quvchi Prezident maktabiga qabul qilingan taqdirda, uning ota-onasi yoki qonuniy vakillari o'quvchining Prezident maktablarida haftada 5 kun davomida internat shaklida ta'lim olishiga rozilik bildirishi talab etiladi[33].

Prezident maktablariga imtihon topshirib, kerakli ballni to'play olmagan, ammo yuqori ball to'plagan o'quvchilar boshqa ixtisoslashtirilgan maktablarda tahsil olishni davom ettirishlari mumkin.

¹ „Prezident maktablariga qabul qilish tartibi“. Piima.uz. 2022-yil 9-may.

² „Prezident maktabida o'qimoqchi bo'lgan o'quvchilarning baholari qaysi fanlardan a'lo bo'lishi kerak“. Uza.uz (2021-yil 24-aprel).

³ „Prezident maktablariga onlayn ariza topshirish bo'yicha videoqo'llanma“. Piima.uz.

⁴ „Prezident maktablariga kirish imtihonlari qanday tartibda o'tkaziladi?“. Uza.uz (2021-yil 11-may).

⁵ „Prezident maktablariga qabul qilish tartibi“. Piima.uz.

Xulosa qilib aytganimizda, prezident va ixtisoslashtirilgan maktablar ikkita muhim xususiyat bilan ajralib turadi: birinchidan, ularning yuridik maqomining o'ziga xosligi (ko'p hollarda ular Vazirlar mahkamasi tasarrufida), ikkinchidan, ularning o'quv jarayonini tashkil etishda keng avtonomiya huquqiga ega ekanligi. Bu maktablar nafaqat ta'lim dasturlari va ularning mazmunini shakllantirish, balki o'qituvchilar tarkibini tanlash, boshqaruv tuzilmasini belgilash, moliyaviy resurslarni taqsimlash va xalqaro hamkorlikni amalga oshirishda ham katta mustaqillikka ega. Huquqiy normalar tahlili shuni ko'rsatdiki, prezident va ixtisoslashtirilgan maktablar o'ziga xos ta'lim muassasasi sifatida an'anaviy maktablardan farq qiluvchi quyidagi huquqlarga ega:

1. O'quv rejalarini mustaqil ishlab chiqish va tasdiqlash;
2. O'qituvchilar va xodimlarni tanlab olishda keng vakolatlar;
3. Chet el mutaxassislarini jalb qilish imkoniyati;
4. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni mustaqil joriy etish;
5. O'quvchilarni tanlab olish uchun maxsus sinov mexanizmlarini qo'llash.

Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarda ta'lim jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligini tashkil etish to'g'risida"gi PF-5815-son farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4199-son qarori.
3. Ziyayeva, M. Ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari. – "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar" ilmiy jurnali, 2021.
4. Abdullayeva N. Iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va rivojlantirish. Toshkent: O'qituvchi, 2018.
5. Milliy ta'lim dasturlari va xalqaro tajriba. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
6. Sodikov A. Ta'limni boshqarishning zamonaviy usullari. Toshkent: Akademya, 2020.